



«KAMOLIDDIN BEHZOD IZDOSHLARI»

NIZOM Respublika ijodiy tanlovi

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom yosh ijodkorlar o'rtasida "Kamoliddin Behzod izdoshlari" miniatyura va xalq amaliy san'ati asarlari tanlovini (bundan keyingi o'rinlarda - "Tanlov" deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori ijrosini ta'minlash hamda yosh iste'dodli ijodkorlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kamoliddin Behzod izdoshlari" miniatyura va xalq amaliy san'ati asarlari ijodiy tanlovini har yili an'anaviy tarzda o'tkazib boriladi.

Ushbu tanlov bevosita miniatyura va xalq amaliy san'ati yo'nalishidagi yosh ijodkorlarning milliy o'zligimizni anglash g'oyalarini tarannum etuvchi yorqin san'at asarlarini yaratishdagi faoliyatini rag'batlantirish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2.1. Tasviriy va amaliy san'atning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, tasviriy san'at olamiga kirib kelayotgan yosh ijodkorlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular ijodini rivojlantirishga ko'maklashish;

miniatyura va xalq amaliy san'ati sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, milliy san'atimizning kelajagini ta'minlovchi yosh iste'dodlarni izlab topish;

yosh iste'dodlarni tasviriy va amaliy san'at asarlarini yaratishning yangi ijodiy uslublarini izlashga, xalqimizning boy ma'naviy dunyosi, ozod va obod Vatan kelajagi oldida mas'uliyatli bo'lish, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini tarannum etuvchi yorqin asarlar yaratishga yo'naltirish;

ularda go‘zal va betakror vatanimiz, milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish;

ijodkor yoshlarning izlanishi, o‘z qobiliyatini namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish;

milliy san‘atimizni har tomonlama rivojlantirish, yosh ijodkorlarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish, ularning iste‘dodini tizimli asosda tarbiyalashning yangi istiqbollarini ochish maksadida tashkil etiladi.

2.2. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

yosh ijodkorlarning tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda ijodiy muhit shakllanishiga erishish;

yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar. ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko‘nikmalarini yanada yuksaltirish;

yosh avlodni vatanparvarlik ruhida barkamol etib tarbiyalash, ular qalbida Vatanga sadoqat, milliy an‘ana va qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlash;

milliy san‘atimizning durdona asarlari, mashhur ajdodlarimiz ijodini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish, kelajakda yosh ijodkorlar tomonidan badiiy yetuk, yuqori saviyali asarlar yaratilishiga erishish.

III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

3.1. Tanlovda **15** yoshdan **23** yoshgacha bo‘lgan barcha yoshlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish mas‘ul tashkilotlar (Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan hududiy Tashkiliy qo‘mitalar shakllantiriladi) vakillaridan tarkib topgan Tashkiliy qo‘mita zimmasiga yuklatiladi. Tashkiliy qo‘mita tanlovning Hakamlar hay‘ati tarkibini shakllantiradi hamda hay‘at raisini tayinlaydi. Hakamlar hay‘ati tarkibiga Badiiy akademiya va Badiiy ijodkorlar uyushmasining mas‘ul xodimlari, shuningdek, madaniyat va san‘at sohasining yetakchi vakillari kiritilishi mumkin.

Tashkiliy qo‘mita zaruratdan kelib chiqib, tanlov Nizomi va uni o‘tkazish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

3.3. Tanlovda yoshlar o‘zlari ta‘lim olayotgan o‘quv muassasasi nomidan ishtirok etadi.

3.4. Tanlov quyidagi ikki yosh toifalari bo‘yicha alohida-alohida tartibda o‘tkaziladi:

- 15 yoshdan 17 yoshgacha;

- 18 yoshdan 23 yoshgacha;

3.5. Tanlov ikki bosqichda tashkil etiladi:

3.6. Birinchi bosqich - hududiy bosqich: Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatlari va san'at maktablari, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, soha yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasi hududiy bo'limlari tomonidan **1-fevraldan 1-martgacha** tanlovning hududiy bosqichlari o'tkaziladi. Tanlovning hududiy bosqichlarida yosh toifalari bo'yicha birinchi 3 (uchta) o'rinni qo'lga kiritgan g'oliblarga Respublika bosqichiga yo'llanma beriladi.

3.7. Ikkinchi bosqich – tanlovning respublika bosqichi bo'lib, tanlovning hududiy bosqichida yosh toifalari bo'yicha birinchi 3 (uchta) o'rinni qo'lga kiritgan g'oliblarga Respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanma beriladi, hududiy bosqichlar g'oliblarining hujjatlari va ijodiy ishlari Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi hududiy Tashkiliy qo'mitalari tomonidan **1-martdan 10-martgacha** Tanlov Tashkiliy qo'mitasiga taqdim qilinadi.

Tashkiliy qo'mita har bir belgilangan nominatsiyalar va yosh toifasi bo'yicha kelib tushgan hujjatlarni **10-martdan 1-aprelgacha** ko'rib chiqadi, respublika bosqichi ishtirokchilari ro'yxatini shakllantiradi hamda Tanlov hay'atiga taqdim qiladi. Tanlov hay'ati **10-aprelgacha** nomzodlar orasidan tanlov g'oliblarini aniqlaydi hamda tanlov natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi.

3.8. Respublika bosqichi ishtirokchilarining yakuniy ko'rgazmasi hamda g'oliblarni taqdirlash tadbiri har yili an'anaviy "Tasviriy va amaliy san'at festivali" doirasida aprel oyida o'tkaziladi. Yakuniy ko'rgazma va tanlov g'oliblari va sovrindorlarini taqdirlash marosimining o'tkazilish kuni va joyi "Tasviriy va amaliy san'at festivali" dasturida e'lon qilinadi.

3.9. Hududiy bosqich ishtirokchilari arizalari Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasi hududiy bo'limlarining Tashkiliy qo'mitalarida, Respublika bosqichi ishtirokchilarining hujjatlari **Respublika ixtisoslashtirilgan Dizayn maktabida Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 26-mavze, Shirin ko'chasi I A uy, (telefon: (71) 272-88-18; 97 445-51-09)** qabul qilinadi.

3.10. Tanlovga bitta ishtirokchi tomonidan erkin mavzuda yaratilgan 4 (to'rt) donagacha bo'lgan ijodiy ishlar taqdim etiladi.

3.11. Tanlovga Nizomga ilova qilingan namuna asosida to'ldirilgan arizalar qabul qilinadi.

3.12. Tanlovga asarlarni faqat ishtirokchiga bevosita daxldor bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs – ta'lim muassasasining mas'ul vakili taqdim etishi mumkin. Asarlarni tanlovga qayta taqdim etish va arizani qaytarib olishga faqat asarlarning egasi haqli.

3.13. Tanlovda ishtirok etuvchi ishtirokchi o'z arizasiga quyidagi qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilishi lozim:

- ishtirokchining pasport (yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat) nusxasi;
- taqdim etilgan barcha ijodiy ishlar haqida ma'lumot berilishi (asar nomi, yaratilgan yili, texnikasi);
- taqdim etilgan barcha ijodiy ishlar nomi o'zbek, rus va ingliz tillarida berilishi;
- erkin mavzudagi so'nggi uch yil davomida yaratilgan mualliflik ishlari.
- ishtirokchi to'g'risida ma'lumot (so'rovnoma).

3.14. Tanlovga taqdim etilgan arizalar hududiy Tashkiliy qo'mitalar tasdiqlagan Ekspert guruhi tomonidan saralanadi va shu asnoda nomzodlarning ro'yxati shakllantiriladi. Nomzodlarning yakuniy ro'yxatini Tashkiliy qo'mita tasdiqlaydi.

3.15. Tanlovda ishtirok etayotgan asarlar va ularning mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- asarlarning mazmuni tanlov auditoriyasi (yoshlar)ning talab va qiziqishlariga mos kelishi lozim;
- ishlar yuqori darajada bajarilishi;
- taqdim etilgan barcha ijodiy ishlar haqida ma'lumot berilishi (asar nomi, yaratilgan yili, texnikasi);
- asarning mavzusi asosida ilg'or g'oyaning ochib berilishi;
- asarlarning mazmuni yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi, ularning bilim darajasini va dunyoqarashini oshirishi kerak;
- tanlovda ishtirok etayotgan asarlarga uchinchi shaxslarning huquqlari, shu jumladan, mualliflik huquqini poymol etuvchi materiallar, milliy qonunchilikka zid bo'lgan materiallar, ma'naviy va axloqiy meyorlarga to'g'ri kelmaydigan materiallar joylashtirish ta'qiqlanadi.

IV. Tashkiliy qo'mita hamda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

4.1. Tashkiliy qo'mita faoliyati davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- tanlovni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi;

- tanlov boshlanishi to'g'risida belgilangan muddatlarda ommaviy axborot vositalariga rasmiy e'lon beradi.

- Ekspert guruhi tarkibi hamda ularning rahbarlarini tayinlaydi;

- tanlovga arizalar qabul qilish jarayonini tashkil etadi, arizalarning mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablar asosida rasmiylashtirilishini nazorat qiladi;

- tanlovni o'tkazish jarayonida Ekspert guruhi va Hakamlar hay'atining ishini muvofiqlashtiradi;

- tanlov g'oliblari va sovrindorlarini taqdirlash marosimini tashkil etadi;

- tanlovning boshqa tashkiliy masalalarini hal etadi.

4.2. Tashkiliy qo'mita o'z faoliyati davomida quyidagi huquqlarga ega:

- tanlovga taqdim etilgan asarlar mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablarga javob bermagan taqdirda nomzodning arizasini qaytarish;

- tanlov ishtirokchisi mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablarni buzgan hamda tanlovning o'tkazilish talab va shartlariga mos kelmagan taqdirda uni tanlovdan chetlashtirish.

4.3. Tashkiliy qo'mita quyidagi tartibda qaror qabul qiladi:

- Tashkiliy qo'mita tomonidan barcha qarorlar faqat a'zolarining ovoz berish yo'li bilan hamda hal qilinayotgan masalaning muhimlik darajasiga qarab qabul qilinadi.

- ovoz berish natijalari, unda Tashkiliy qo'mita a'zolarining 2/3 qismidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda, haqiqiy deb qabul qilinadi.

4.4. Tashkiliy qo'mita tanlov jarayonida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- tanlovda ishtirok etish uchun talablarni va belgilangan muddatlarni OAVda, O'zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy manbalarida va ijtimoiy tarmoqlarda oldindan e'lon qilish;

- tanlovning barcha ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni yaratish;

- tanlovning ochiq va oshkora tarzda o'tkazilishini ta'minlash;

- tanlov natijalarini kelishilgan muddatdan avval e'lon qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

- tanlovning respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritmagan ijodiy ishlarni mualliflariga Tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qaytarib berish. Bunda transport xarajatlari ishtirokchilar hisobidan bo'ladi. Tashkiliy qo'mita ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng ijodiy ishlar saqlovi uchun kafolat bermaydi.

4.5. Tanlov ishtirokchisining huquqlari quyidagilardan iborat:

- tanlovni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida ma'lumot olish;

- tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan muddatda ariza berish;

- Tashkiliy qo'mitaga arizalar qabul qilish muddati tugashidan kamida 3 kun oldin murojaat etgan holda o'z arizasini qaytarib olish;

- tanlov g'olibi deb e'lon qilinganida sovrin(lar)ni o'zi yoki ishonchli vakili orqali qabul qilib olish.

4.6. Tanlov ishtirokchisining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- arizani topshirishdan oldin tanlov to'g'risidagi mazkur Nizom bilan to'liq tanishish, Nizomda ko'rsatilgan talablar asosida arizani to'ldirilish;

- mazkur Nizomda ko'rsatilgan qoidalarga qat'iy rioya etish.

4.7. Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan qo'shimcha hujjatlardagi noto'g'ri ma'lumotlar uchun javobgar hisoblanadi.

4.8. Tanlov ishtirokchisi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Tashkiliy qo'mita tomonidan tegishli tartibda tanlovdan chetlashtirilishi mumkin. Ishtirokchining tanlovdan chetlashtirilgani to'g'risidagi xabar uning elektron pochta manziliga (basharti uning anketasida elektron manzili ko'rsatilgan bo'lsa) yuboriladi. Tanlov ishtirokchisi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng tanlovga faqat Tashkiliy qo'mitaning ruxsati bilan ikkinchi marotaba ariza topshirishi mumkin.

V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

5.1. Asarlar (tanlov ishtirokchilarining ishlari) Hakamlar hay'ati tomonidan quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha baholanadi:

- mazmundorlik. Asarning mazmuni asar mavzusiga mos kelishi lozim;
- ranglarning aniq tanlanganligi va mutanosibligi;
- ijodiy ishning kompozitson joylashtirilish mahorati;
- ijodiy ishdagi texnika mahorati (ranglar bilan ishlash, yorug'lik va soyalarni ishlash mahorati);
- kompozitsiyaning ishlanish mahorati va uning tugallanganlik darajasi;
- asar badiiy g'oyasining tomoshabin hamda asar oldiga qo'yilgan vazifalarga mosligiga qarab baholanadi.

5.2. Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari Hakamlar hay'ati tomonidan maxsus ishlab chiqilgan baholash varaqalari yordamida baholanadi.

5.3. Asarlar (ishtirokchilarning ijodiy ishlari) Hakamlar hay'ati tomonidan 10 ballik tizimda baholanadi.

5.4. Tanlov hay'atining har bir a'zosi har bir nomzodga o'z bahosini qo'yadi. Har bir asar (ishtirokchining ijodiy ishi)ga Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan qo'yilgan o'rtacha ball keltirib chiqariladi.

5.5. Tanlovning asosiy va qo'shimcha nominatsiyalari g'oliblari va sovrindorlarini aniqlash tartibi quyidagicha:

- tanlov g'oliblari Hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan baholarga qarab aniqlanadi;

- tanlovning yosh toifalari bo'yicha nomzodlarning yakuniy ballari teng bo'lib qolganda, Hakamlar hay'ati raisi ikkita ovoz berish huquqiga ega bo'ladi va hay'at raisi ovoz bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

5.6. Tanlovning asosiy nominatsiyasi g'olibi quyidagi holatlarda aniqlanmasligi mumkin:

- tashkiliy qo'mitaning qaroriga muvofiq, muayyan yosh toifalari bo'yicha tanlovga topshirilgan ishlarning hech biri talabga javob bermagan taqdirda (agarda to'plangan jami ballar miqdori 5 balldan past bo'lsa) g'olib aniqlanmaydi;

- tegishli yosh toifasida ishtirok etuvchilar soni 5 tadan kam bo'lsa hamda ular orasidan birinchi o'ringa munosibi topilmasa, shu yosh toifalari bo'yicha tanlov g'olibi aniqlanmaydi.

VI. Respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash

6.1. Tanlov g'oliblarini taqdirlashni tashkil etish maqsadida Tashkiliy qo'mitaning majlisi o'tkaziladi hamda tanlovning natijalari e'lon qilinadi hamda tanlov g'oliblari va sovrindorlarining ro'yxati tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadi.

6.2. Tanlov natijalari rasman e'lon qilingunga qadar Hakamlar hay'ati hamda Tashkiliy qo'mita a'zolari bu haqdagi ma'lumotlarni oshkor etishlari mumkin emas.

6.3. Tanlov natijalari va g'oliblarning ro'yxati tantanali taqdirlash marosimidan so'ng <http://www.art-academy.uz> rasmiy sayt hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

6.4. Tanlov g'oliblari quyidagi nominatsiyalar bo'yicha belgilanadi:

- Eng yaxshi miniatyura asari uchun;

- Eng yaxshi grafik asari uchun;

- Eng yaxshi naqqoshlik asari uchun;

- Eng yaxshi amaliy san'at asari uchun (miniatyura san'ati bilan uyg'unlashgan amaliy san'at asarlari)

6.5. Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadilar:

- "Kamoliddin Behzod izdoshlari" miniatyura va xalq amaliy san'at asarlari tanlovi g'olibi Diplomi;

- qimmatbaho sovg'a.

6.6. Tanlov g'oliblari va sovrindorlari homiylar tomonidan (Tashkiliy qo'mita bilan kelishilgan holda) ta'sis etilgan qo'shimcha sovrin bilan taqdirlanishlari mumkin.

6.7. Tanlov natijalariga ko'ra Hakamlar hay'ati istalgan ishtirokchini hay'atning maxsus sovrini bilan taqdirlash huquqiga ega.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoniga homiylik mablag'larini jalb etish mumkin.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 977-moddasiga muvofiq O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi ruxsati bilan zaruratdan kelib chiqqan holda mazkur Tanlov Nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.